O‘ZBEK PRAGMALINGVISTIKASIDA SHAHRIYOR SAFAROV MAKTABI

Samadova Madinabonu Qobilzoda
Buxoro Xalqaro Universiteti 2-bosqich
filologiya fakulteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24483717

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistik yo‘nalishning shakllanishida professor Shahriyor Safarov asarlarining o‘rni tahlil qilinadi. Asosiy manba sifatida olimning «Pragmalingvistika» monografiyasi (Toshkent, 2008) olinib, unda ilgari surilgan nazariy qarashlar — fan predmeti, nutqiy akt, bilvosita nutqiy akt, presuppozitsiya, deyksis va diskurs talqini — sharhlanadi. Shuningdek, olim belgilab bergan etnopragmatika, sotsiopragmatika va qiyosiy pragmatika yo‘nalishlarining istiqboli ko‘rsatiladi.
Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, ilmiy maktab, nutqiy akt, faoliyat nazariyasi, presuppozitsiya, deyksis, diskurs, etnosotsiopragmatika.

Аннотация. В статье анализируется роль трудов профессора Шахриёра Сафарова в становлении прагмалингвистического направления в узбекском языкознании. На материале монографии «Прагмалингвистика» (Ташкент, 2008) рассматриваются предмет науки, речевой акт, косвенный речевой акт, пресуппозиция, дейксис и дискурс, а также перспективы этнопрагматики, социопрагматики и сопоставительной прагматики.
Ключевые слова: прагмалингвистика, научная школа, речевой акт, теория деятельности, пресуппозиция, дейксис, дискурс, этносоциопрагматика.

Annotation. The article analyzes the role of Professor Shahriyor Safarov’s works in the formation of the pragmalinguistic trend in Uzbek linguistics. Drawing on his monograph “Pragmalinguistics” (Tashkent, 2008), it examines the subject of the field, the speech act, the indirect speech act, presupposition, deixis and discourse, as well as the prospects of ethnopragmatics, sociopragmatics and contrastive pragmatics.
Keywords: pragmalinguistics, scientific school, speech act, activity theory, presupposition, deixis, discourse, ethnosociopragmatics.

Kirish

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik til tizimini tavsiflashdan tilning muloqotda qo‘llanishini o‘rganishga yuz tutdi. Bu burilish o‘zbek tilshunosligida ham o‘z aksini topdi: 2000-yillar boshida lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishiga bag‘ishlangan ilk maqola va dissertatsiyalar paydo bo‘ldi[1]. Biroq sohaning tushunchalar tizimini o‘zbek tilida yaxlit holda bayon etgan birinchi yirik tadqiqot Shahriyor Safarovning «Pragmalingvistika» monografiyasi bo‘ldi.

[1] Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2001. – №4. – B. 54–58; Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: filol. fan. d-ri … diss. avtoref. – Toshkent, 2001. – 39 b.

Muallifning o‘zi ushbu asarni pragmalingvistika yutuqlarini umumlashtirish va sohaning istiqboliga oid nazariy qarashlarni tahlil etishga bag‘ishlaydi. Annotatsiyada kitob etnopragmatika, sotsiopragmatika va qiyosiy pragmatika bo‘yicha ilmiy material jamlangan dastlabki tajribalardan biri sifatida tavsiflanadi[2]. Monografiya Samarqand davlat chet tillar instituti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan, mas’ul muharriri — professor D.U. Ashurova, taqrizchilari — professorlar N.Q. Turniyozov va Ye.A. Malinovskiy.

Mazkur maqolaning maqsadi — «Safarov maktabi» tushunchasi ostida birlashadigan nazariy tamoyillarni monografiya matniga tayangan holda aniqlash va ularning o‘zbek pragmalingvistikasi rivojidagi ahamiyatini ko‘rsatishdir. Bu yerda «maktab» deganda bir olim atrofida shakllangan yagona metodologik asos, tushunchalar tizimi va tadqiqot yo‘nalishlari majmuasi nazarda tutiladi.

1. Maktabning shakllanish bosqichlari

Sh. Safarovning pragmatikaga oid izlanishlari 2008-yildan ancha oldin boshlangan. Monografiya adabiyotlar ro‘yxatida olimning 1989–1991-yillarda e’lon qilingan ishlari qayd etilgan: etnik xos shaxsning nutqiy harakatlari, kontrastiv pragmalingvistikaning vazifalari hamda nutqiy muloqot tizimidagi universal va etnospetsifik jihatlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar shular jumlasidandir[3]. Demak, maktabning birinchi bosqichi qiyosiy-tipologik va etnopragmatik muammolar bilan bog‘liq.

Ikkinchi bosqichda olim o‘zbek tilida nazariy asarlar yaratishga o‘tdi: «Kognitiv tilshunoslik» (2006) va «Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi» (2007) kitoblari nashr etildi[4]. Shu tariqa «Pragmalingvistika» kognitiv va metodologik izlanishlarning mantiqiy davomi sifatida maydonga keldi.

Monografiyaning «So‘z boshi» qismida muallif sohaning holatiga baho beradi. Uning fikricha, pragmalingvistika dastlabki shakllanish davridan o‘tgan: tadqiq obyekti — nutqiy muloqot tizimi — va tahlil metodlari asosan aniqlangan, yetakchi metodologik g‘oya esa faoliyat nazariyasidir[5]. Shu bilan birga, olim fanni hali «navqiron» deb ataydi, ya’ni yechimini kutayotgan muammolar ko‘pligini tan oladi.

Kitobning vazifalari ham aniq belgilangan: o‘quvchini pragmalingvistik tahlil asoslari bilan tanishtirish, mavjud muammoli masalalarga munosabat bildirish, pragmatikaning semiotik hodisalar qatoridagi o‘rnini aniqlash va uning lisoniy faoliyatdagi ustuvorligini asoslash[6]. Asar so‘z boshi, to‘qqiz bob va xotimadan iborat bo‘lib, boblar kommunikativ-pragmatik yo‘nalishning shakllanishidan diskurs tahliligacha bo‘lgan masalalarni izchil qamraydi.

[2] Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent, 2008. – B. 2.
[3] Safarov Sh. Rechevie deystviya etnospetsificheskoy lichnosti // Lichnostnie aspekti yazikovogo obsheniya. – Kalinin: KGU, 1989. – S. 62–67; Safarov Sh. Kontrastivnaya pragmalingvistika: aktualnie zadachi i perspektivi izucheniya // Pragmatika etnospetsificheskogo diskursa. – Belsi, 1990. – S. 101–103; Safarov Sh. Sistema rechevogo obsheniya: universalnoe i etnospetsificheskoe. – Samarkand, 1991. – 171 s.
[4] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.; Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
[5] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 6.
[6] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 7.

2. Fan predmeti va metodologik asos

Maktabning nazariy poydevori monografiyaning III bobida bayon etilgan. Muallif pragmalingvistikaning mustaqil yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning 60–70-yillarida shakllanganini qayd etadi va bunga dalil sifatida 1970-yilda Dordrextda o‘tgan «Tabiiy tillar pragmatikasi» xalqaro konferensiyasini keltiradi[7].

Olimning tanqidiy mulohazalari ham e’tiborga loyiq. U «pragmatika» atamasining o‘rinli-o‘rinsiz qo‘llanishini pragmatik «fetishizm» deb ataydi va predmet aniq bo‘lmasa, tushunchalar betartib ishlatilib, xulosalar noaniq chiqishini ta’kidlaydi. Shu sababli tahlildan oldin uchta savolga javob topish talab etiladi: pragmalingvistika nima bilan shug‘ullanadi, uning obyekti va predmeti nimadan iborat, asosiy tushuncha va tamoyillari qaysilar[8].

Bu savollarga javob faoliyat nazariyasi asosida beriladi. Safarov talqinida faoliyat nazariyasi sohaga antropologik ruh bag‘ishlaydi, lingvopragmatik tahlil obyekti esa lison, uning faoliyat jarayonida voqelanadigan xususiyatlari va kommunikatsiya kategoriyasidir[9]. Bob yakunida umumlashma ta’rif beriladi: pragmatika muloqot jarayonida lisoniy birliklarning tanlanishi, qo‘llanishi va ularning muloqot ishtirokchilariga ta’sirini o‘rganuvchi alohida sohadir. Muallif vazifa (funksiya) tushunchasini pragmalingvistik yondashuvning tayanchi deb hisoblaydi.

Predmetning keng talqini sohaning ichki tarmoqlarini ham belgilab beradi. Monografiyada nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika va pragmastilistika shunday tarmoqlar sifatida sanaladi[10]. Ushbu tasnif o‘zbek tilshunosligidagi pragmatik tadqiqotlar uchun aniq dastur bo‘lib xizmat qila oladi.

3. Asosiy tushunchalar talqini

Nutqiy akt. IV bobda nutqiy akt nazariyasining J. Ostin va J. Syorl ishlarida yaxlit ta’limot sifatida shakllangani ko‘rsatiladi. Safarov bu tushunchaga ixcham ta’rif beradi: «nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir»[11]. Ta’rifda uch unsur — muhit, maqsad va adresat — birlashtirilgan, bu esa gapni grammatik birlik sifatida emas, harakat sifatida ko‘rishni taqozo etadi.

Bilvosita nutqiy akt. V bobda semantika va pragmatika munosabati o‘zbekcha misol orqali ochiladi. «Tashqarida havo sovuq» gapi bir vaziyatda xabar, boshqasida eshikni yopish haqidagi iltimos sifatida idrok etiladi. Muallif xulosasiga ko‘ra, lisoniy tuzilma bilan kommunikativ maqsad o‘rtasidagi nomutanosiblik bilvosita nutqiy harakatning asosiy belgisidir[12].

Presuppozitsiya. VI bobda pragmatik mazmunni shakllantiruvchi hodisalar tahlil qilinadi. Strukturaviy presuppozitsiya so‘roq gaplar misolida tushuntiriladi: «U qachon ketdi?» savoli «U ketgan» degan hukmni oldindan nazarda tutadi[13]. Muhimi, olim bu o‘rinda o‘zbek

[7] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 56.
[8] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 57.
[9] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 75.
[10] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 76.
[11] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 77.
[12] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 99.
[13] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 124.

tilshunoslari A. Nurmonov va N. Mahmudovning mazmuniy sintaksisga oid ishlariga tayanadi[14]. Bu holat maktabning milliy tilshunoslik an'anasidan uzilmaganini ko'rsatadi.

Deyksis va diskurs. VIII bob I. Bar-Hillel misollari bilan boshlanadi: «Yomg'ir yog'ayapti» yoki «Och qoldim» kabi gaplarning mazmunini to'liq anglash uchun ular kim tomonidan, qachon va qayerda aytilganini bilish zarur[15]. IX bobda esa nutqiy muloqot tizimining birliklari va diskurs tuzilishi ko'rib chiqiladi. Shu tariqa monografiya gapdan matnga, matndan muloqot vaziyatiga tomon kengayib boruvchi tahlil modelini taklif etadi.

4. Maktabning yo'nalishlari va istiqboli

Safarov maktabining o'ziga xos jihati pragmatik nazariyani milliy-madaniy material bilan bog'lashidir. VII bobda samarali muloqot tamoyillari haqida so'z yuritilar ekan, muallif H. Grays ta'limotidan oldin «Qutadg'u bilig», «Qobusnoma», «Hibatul haqoyiq» kabi Sharq yodgorliklarini eslaydi va nutq odobi masalalari o'zbek olimlari (E. Begmatov, S. Mo'minov va boshqalar) diqqat markazida bo'lib kelganini ta'kidlaydi[16]. Demak, sotsiopragmatik tahlil G'arb nazariyasining oddiy ko'chirmasi emas, balki mahalliy muomala an'anasi bilan uyg'unlashtirilgan.

Xotima qismida olim pragmatika sotsiolingvistika bilan aloqasini uzmaganini va shu aloqa yangi yo'nalishlar — sotsiopragmatika hamda etnosotsiopragmatikani oziqlantirayotganini yozadi[17]. Bu fikr amaliy tadqiqot bilan ham mustahkamlangan: 2007-yilda Sh. Safarov va G. Toirova hammuallifligida «Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari» risolasi chop etilgan[18].

Monografiya yakunida pragmalingvistikaning «qizaloqlari» sifatida etnopragmatika, sotsiopragmatika, etnosotsiopragmatika, madaniyatlararo pragmatika va qiyosiy pragmatika sanab o'tiladi[19]. Muallif ularning rivoji uch sohada samara berishini bashorat qiladi:

– til ta'limi metodikasini yangi g'oya va metodlar bilan boyitish;
– millatlararo, xalqaro va ishbilarmonlik muloqoti ko'nikmalarini o'stirish;
– inson–kompyuter muloqotida ishlatiladigan ekspert tizimlarini pragmatik ma'lumotlar bilan to'ldirish[20].

Ushbu bashoratlar bugungi o'zbek tilshunosligi uchun ham dolzarb. Kompyuter lingvistikasi, tarjimashunoslik va lingvodidaktikada pragmatik omilni hisobga olish zarurati ortib bormoqda, bu esa Safarov belgilagan yo'nalishlarning hayotiyligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Birinchidan, Sh. Safarov maktabining metodologik asosi faoliyat nazariyasidir: til muloqot ishtirokchilarining maqsadli harakati sifatida o'rganiladi. Ikkinchidan, «Pragmalingvistika» monografiyasi nutqiy akt, bilvosita nutqiy akt, presuppozitsiya, deyksis va diskurs tushunchalarini o'zbek tilida tizimli bayon etib, soha terminologiyasining qaror topishiga xizmat qildi. Uchinchidan, maktab umumnazariy qoidalarni o'zbek tili materiali va

[14] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 118, 124, 127.
[15] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 164.
[16] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 135.
[17] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 260.
[18] Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. – Samarqand: SamDCHTI, 2007. – 39 b.
[19] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 278.
[20] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – B. 278–279.

Sharq muomala madaniyati bilan bog‘lab, etnopragmatik va sotsiopragmatik tadqiqotlarga yo‘l ochdi.

To‘rtinchidan, olim ko‘rsatgan istiqbolli yo‘nalishlar — qiyosiy va madaniyatlararo pragmatika, til ta’limi, sun’iy intellekt tizimlari uchun pragmatik ma’lumotlar bazasi — hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois o‘zbek pragmalingvistikasining keyingi taraqqiyoti ko‘p jihatdan ushbu maktab g‘oyalarini yangi til materiali asosida davom ettirish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent, 2008. – 318 b.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.
3. Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. – Samarqand: SamDCHTI, 2007. – 39 b.
5. Safarov Sh. Sistema rechevogo obsheniya: universalnoe i etnospetsificheskoe. – Samarkand, 1991. – 171 s.
6. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2001. – №4. – B. 54–58.
7. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: filol. fan. d-ri … diss. avtoref. – Toshkent, 2001. – 39 b.
8. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – 234 b.